

ERKIN IQTISODIY ZONALAR: O'ZBEKISTONNI XORIJIY INVESTORLAR UCHUN JOZIBADOR QILISH

Chinmirzayev Sh. S

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti talabasi*

Chinmirzayevs@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalarining (EIZ) xorijiy investorlarni jalb qilishdagi ro'li va usullarini tahlil qiladi. Maqolada hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan EIZlarning mamlakat iqtisodiga qo'shayotgan hissasi, eksport hajmini oshishi va ish o'rinlarini ko'payishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Bundan tashqari SWOT tahlil yordamida zonalarining kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi. Va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EIZlarni rivojlanishida va ko'proq sarmoyadorlarni jalb qilishda, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash, infratuzilmani takomillashtirish va shu kabi bir qancha omillar katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), investitsiyalar, O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, imtiyozlar, SWOT tahlili.

Аннотация: В данной статье проводится анализ роли и методов привлечения иностранных инвесторов в свободные экономические зоны (СЭЗ) Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется вкладу функционирующих СЭЗ в развитие национальной экономики, в частности, их значению в увеличении экспортного потенциала и создании новых рабочих мест. С помощью SWOT-анализа выявлены ключевые сильные и слабые стороны данных зон. Результаты исследования свидетельствуют о том, что укрепление правовой базы, развитие инфраструктуры и другие системные меры являются важнейшими факторами, способствующими эффективной деятельности СЭЗ и повышению их инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: Свободные экономические зоны (СЭЗ), инвестиции, Узбекистан, экономическое развитие, льготы, SWOT-анализ.

Abstract: This article analyzes the role and methods of Free Economic Zones (FEZs) in attracting foreign investors in the Republic of Uzbekistan. It examines the current contribution of active FEZs to the national economy, their role in increasing export volumes, and their importance in creating new jobs. Furthermore, using a SWOT analysis, the strengths and weaknesses of these zones are assessed. The research findings indicate that strengthening the legal framework of FEZs, improving infrastructure, and addressing several other key factors are crucial for their development and for attracting more foreign investment.

Key words: Free economic zones (FEZ), investments, Uzbekistan, economic development, incentives, SWOT analysis.

Kirish: So'ngi yillarda O'zbekiston iqtisodiy tomonlama rivojlanish uchun investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor bermoqda. Bu jarayonda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va chet eldan investitsiyalar jalb qilishda muhim ro'l o'ynamoqda. O'zbekiston so'ngi yillarda EIZlarga ko'proq e'tibor qaratib, soliq imtiyozlari, yaxshilangan infratuzilma va ma'muriy yengiliklar orqali sarmoyadorlar uchun jozibador muhit yaratishmoqda. Ushu maqola EIZlarning investitsiyalar jalb qilishdagi o'rni va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijasida, EIZlarning hozirgi kundagi o'rnini o'rganish bilan bir qatorda, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini taklif etiladi va tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili: EIZlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni rahbanlantirishda muhim o'rin tutadi. EIZlarning o'rni va iqtisodiyotga ta'sirini juda ko'plab olimlar o'rganishgan va tahlil qilishgan. Ba'zi tadqiqotchilar bunday hududlarning qanday qilib sarmoyadorlarni jalb qilishi ustida tadqiqot olib borgan bo'lsa, qolganlari EIZlarni bundan ham samaraliroq qilish ustida izlanishlar olib borishgan va chet el tajribalaridan na'munalar olishgan.

Shu kabi tadqiqotchilardan biri Habibjonov (2022)¹ O'zbekistonda EIZlarni muvaffaqiyatli tashkil etishda infratuzilma, soliq va bojxona imtiyozlari va shu kabi omillarga e'tibor qaratish kerak ekanligini o'rganadi. Infratuzilmaning yaxshiligi va ma'muriy yengiliklar sarmoyadorlarni jalb qilishning asosiy omillar ekanligi qayd etadi. Ammo tadqiqot naraziy qarashlarga asoslanib amalliy natijalar va statistik manbalarni keltirishda cheklangan.

Farole (2011)² xalqaro tajribaga asoslangan tadqiqotida EIZlarning rivojlanishi uchun soliq imtiyozlaridan tashqari ison kapitali va mahalliy bozorning integratsiyalashuvi muhligini ko'rsatadi. U Afrikadagi EIZlar misolida tadqiqotlar olib boradi. Habibjonovdan farqli ravishda kattroq ko'lamda tadqiqot olib boradi, ammo O'zbekiston kabi iqtisodiyoti hali rivojlanib bo'lmagan mamlakatlarga chuqur urg'u bermaydi.

Jumaqulov (2023)³ o'z maqolasida O'zbekistondagi EIZlarning rivojlantirish strategiyalari va investitsiyani jalb qilishda muommolarni o'rganishga harakat qiladi. Uning tadqiqotlari yangilangan soliq imtiyozlari va infratuzilmalar kabi o'zgarishlar e'tibor qaratadi.

¹ Habibjonov, U. (2022). Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish istiqbollarining ilmiy-nazariy asoslari. *Nordik University Journal of Economics*

² Farole, T. (2011). *Special economic zones in Africa: Comparing performance and learning from global experience*. World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-0-8213-8638-5>

³ Jumaqulov, O. (2023). *Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari*. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(7), 80–83. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp80-83>

EIZlarning iqtisodiyotdagi o'rnini bo'yicha o'tqazilgan tadqiqotlarda ularning iqtisodiy o'sishni rahbatlantirish va xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim ro'l tutishi aniqlangan. Va shuni aytish mumkinki, EIZlarning samaradorligi faqatgina infratuzilma yoki tashqi yengilliklar bilan emas, balki ichki boshqaruv va qonunchilik barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek bu maqola erkin iqtisodiy zonalarining imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, ularni samaraliroq qilish bo'yicha tavsiyalar berish va investorlarni jalb qilish bo'yicha yangi yondashuvlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalarining xorijiy investorlarni jalb qilishdagi ro'li va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jaroyonida quyidagi metodlardan foydalanilgan: statistik tahlil, SWOT tahlili va taqqoslash usuli. Statistik ma'lumotlar asosan stat.uz, invest.gov.uz, Jahon banki (worldbank.org), KPMG va boshqa tashkilotlar hisobotlari va ilmiy maqolalardan olingan.

Tadqiqot quyidagi usullar bilan olib borildi:

- Statistik tahlil: 2018-2024-yillar oralig'ida O'zbekistondagi EIZlar faoliyati sababli jalb qilingan investitsiyalar, eksport hajmi va yaratilgan ish o'rinlar ko'rsatkichlari orqali tahlil qilindi.
- Muammolar tahlili: Mavjud muammolarni tahlil qilish va ularga yechimlar taklif etish.
- SWOT tahlili: EIZlarning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyat va xavf-xatarlari aniqlanib tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Statistik tahlil: So'ngi yillarda O'zbekistonda EIZlarning faoliyati sezilarli darajada oshdi, va ba'zi quyida berilgan ko'rsatkichlarni qayd etdi. Statistik tahlil o'z ichiga 2018-2024-yillardagi EIZlarning faoliyatlarini qamrab oladi. Va shu yillardagi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi.

Investitsiyalar dinamikasi: 2018-yilda EIZlar jalb qilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi \$280 millionga yaqinlashgan bo'lsa, bu ko'rsatkich har yili jadal suratda o'sib borgan va 2024-yilga yetib \$1,450 millionni tashkil qilgan. Va shu 6 yil oralig'ida FDI hajmi 5 barobarga ortgan. E'tiborli jihatli 2021-yilda o'sish surati 44,2%ni qayd etgan. Bunday natijalarga esa bojxona yengilliklari va soliq imtiyozlari katta ta'sir ko'rsatgan (see table 1).

Shu bilan birga EIZlar jalb qilgan investitsiyalar umumiy FDIning 30.5%ini tashkil etadi⁴. Bu EIZlarning xorijiy investorlar orasida yaxshigina o'ziga jalb qiluvchi maydon bo'lib ulgurganidan dalolat beradi.

⁴ Jahon banki. (2024). *O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari va xorijiy investitsiyalar bo'yicha tahliliy hisobot*. <https://worldbank.org/uzbekistan>




Table 1: 2018-2024 yillarda EIZlardagi FDI hajmi (mln \$)⁵

Ekport hajmi: EIZlar orqali eksport hajmi 2018-2024-yillar oralig'ida \$420 milliondan \$2.1 milliardgacha yetgan. Bu eksport hajmi 5 barobar, o'rtacha hisobda har yili 35% oshaganini anglatadi, ayniqsa 2023-2024 yillarda elektronika va farmatsevtika mahsulotlarining eksporti 3 barobarga ortgani sezilarni natija. Bu ko'rsatkichlar EIZlarda texnologiyali ishlab chiqarish ortib borayotgani va eksport salohiyati oshayotganini ko'rsatadi.

Ish o'rinlari: O'zbekiston Respublikasidagi EIZlar tufayli yaratilayotgan ish o'rinlari so'ngi yillarda sezilarli darajada oshgan. Misol uchun 2018-yilda Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan 3 ta loyiha sababli 428ta ish o'ri yaratilgan, 2019-yilda bu ko'rsatkich 2535taga yetgan va bu ko'rsatkich 23ta investitsion loyhani ishga tushirish natijasida vujudga kelgan.

2021-yilda O'zbekistonda bir nechta EIZlar tashkil etildi, ulardan "Navoiy", "Angren", "Jizzah" kabi zonalarda 62ta loyiha amalga oshirilish natijasida, 4600 ish o'ri yaratilgan. Eng yirik ko'rsatkichlar 2024-yil amalga oshirilgan bo'lib, "Urgut" EIZda 6521 ta ish o'ri 86ta loyiha doirasida paydo bo'lgan (see table 2).

Umuman olganda EIZlarning faoliyati yildan yilga yaxshilanib bormoqda, va fuqorolarning bandligini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Tashqi investitsiyalar statistikasi*. <https://cbu.uz>

Yil	Yangi ish o'rinlari soni	Izohlar
2018	428	Sirdaryo viloyatidagi EIZlarda 3 ta loyiha natijasida.
2019	2,535	23 ta investitsiya loyihasi doirasida yaratilgan ish o'rinlari ⁶
2021	4,600	62 ta loyiha doirasida "Navoiy", "Angren", "Jizzax" va boshqa EIZlarda yaratilgan ⁷ .
2024	6,521	"Urgut" EIZda 86 ta loyiha asosida yaratilgan ish o'rinlari ⁸

Table 2: 2018-2024-yillarda yaxshi ko'rsatkichlar qayd etgan EIZlar

Muammolar va yechimlar:

- Infratuzilmadagi muammolar: Ko'plab EIZlarda transport-logistikasi, energetika va telekommunikatsiya infratuzilmasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli, EIZlarning samaradorlik darajasini tushiradi.
Bunga yechim sifatida EIZlar hududlarida temiryo'l, magistral yo'llar va elektr tarmoqlarini kengaytirish uchun davlat xususiy sherikchilik loyhalarini yo'lga qo'yish va infratuzilma fondni EIZlarni rivojlantirish jamg'armasi orqali molyalashtirish⁹ ni olishimiz mumkun.
- Byurokratik to'siqlar: Ruxsatnoma va litsenziya olish, bojxona rasmiylashtiruv va shu kabi ishlar sarmoyadorlash uchun qiyinchilik tug'diradi.
Hujjatlarni online rejimda rasmiylashtirish va EIZlarda avtomatlashgan tarzda axborot tizimlarini joriy etish bu muammoni yengillashtiradi.
- Moliyalashtirishdagi to'siqlar: Kichik va o'rta biznes uchun qarz olish shartlari biroz noqulay, investorlar esa mahalliy banklardan katta kafolat talablari tufayli shu kabi muammolarga duch kelishyabdi¹⁰.
EIZlar uchun alohida imtiyozli kriditlar tashkil etish va qarz olish jarayonini yengillashtirish maqsadga muoffiq bo'ladi.

SWOT tahlili: O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan EIZlarning kuchli va zaif tomonlari shu bilan mavjud imkoniyat va tahdidlarini analiz qilsak:

⁶ UZA rasmiy axborot agentligi, "Yangi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati muvofiqlashtiriladi", (2019). <https://uza.uz/oz/posts/yangi-erkin-iqtisodiy-zonalar-faoliyati-muvofiqlashtiriladi>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish", (2021). <https://president.uz/oz/lists/view/1113>

⁸ Urgut EIZ rasmiy sayti, "Urgut erkin iqtisodiy zonasida 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar", (2024) <https://ufez.uz/uz/urgut-erkin-iqtisodiy-zonasi>

⁹ Unlocking The Potential_UZ_Policy. (2025). <https://chartercitiesinstitute.org/wp-content/uploads/2025/04>

¹⁰ Ahn, Y.-J., Juraev, Z., & Gu, J.-Y. (n.d.). *Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth*. <https://doi.org/10.22146/ijg.84351>

Kuchli tomonlar Soliq va bojxona imtiyozlari investorlarni jalb etadi. Iqtisodiy zonalarda ish o'rinlari va eksport salohiyati oshmoqda. “Yagona darcha” va online ruxsatnomalar tizimi joriy etilishi ¹¹ .	Zaif tomonlari Infratuzilma to'laqonli rivojlanmaganligi jarayonni sekinlashtiradi. Byurokratik tosiqlar hali to'liq bartaraf etilmagan. Molyalashtirish jarayonida qiyinchiliklar mavjud.
Imkoniyatlar Xalqaro investitsiya va sheriklik dasturi kengayishi ¹¹ . Innovatsion texnologiyalar importi va klaster qiymat zanjiri. Yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya loyhalari.	Tahdidlar Siyosiy va huquqiy o'zgarishlar ro'y berish ehtimoli ¹² . Mehnat bozoridagi bo'shliq va kadrlar oqimi ¹³ . Iqtisodiy inqiroz.

EIZlarning asosiy kuchli jihatlari bu soliq va bojxona imtiyozlari, hamda soddalashtirilgan ruxsatnomalar tizimidir. Shu bilan birga ish o'rinlari yaratishdagi natijalar va eksport hajmini oshib borishi EIZlarning mamlakat iqtisodiyotida muhim ro'l kasb etganligini tasdiqlaydi. Zaif tomonlariga keladigan bo'lsak, haligacha byurokratik to'siqlar mavjudligi, infratuzilma ba'zi hududlarda rivojlanmaganligi va molliyalashtirishdagi qiyinchiliklar muammolarga sabab bo'lyabdi va EIZlarning samaradorligini maksimallashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, EIZlar uchun kelgusi imkoniyatlar ham talaygina, ayniqsa xorijiy investitsiya oqimlarining kengayishi, innovatsion texnologiyalar importi orqali EIZlar yanada rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari EIZlarni tashkil etish orqali chekka hududlarda iqtisodiy faollikni rahbatlantirish ham bir imkoniyat sifatida qaralishi mumkin. Global iqtisodiy beqarorlik va huquqiy o'zgarishlar va ayniqsa mehnat bozoridagi muammolar EIZlarning kelajagiga xavf solmoqda.

Umuman olganda, EIZlar mamlakat iqtisodiy rivoji uchun katta ro'l o'ynamoqda va samaradorligini oshirish uchun, ma'lum imkoniyatlardan foydalanish, zaifliklarni bartaraf etish va tahdidlarni kamaytirish talab etiladi.

Xulosa: O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2018–2024-yillarda EIZlar orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar \$280 milliondan \$1.45 milliardgacha o'sdi, eksport hajmi \$420 milliondan \$2.1 milliardgacha yetdi, 6500 dan ortiq yangi ish

¹¹ 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. (2024). <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan>

¹² OECD, 2019. *OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan – Towards a More Modern, Effective and Strategic Public Administration*.

¹³ Unlocking The Potential_UZ_Policy. (2025). <https://chartercitiesinstitute.org/wp-content/uploads/2025/04>

o'rinlari yaratildi. Soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan ruxsatnomalar olish tartiblari investorlar uchun qulay muhit yaratdi. Biroq, infratuzilma muammolari, byurokratik to'siqlar va moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar EIZlarning samaradorligini maksimallashtirish uchun to'sqinlik qilmoqda. SWOT tahlili orqali EIZlarning kuchli tomonlari (imtiyozlar, eksport o'sishi) va zaif tomonlarini (infratuzilma, boshqaruv) aniqlandi. Samaradorlikni oshirish uchun huquqiy bazani mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish zarur. EIZlar O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo'lib, zaifliklarni bartaraf etish va imkoniyatlardan foydalanish orqali yanada ko'proq investorlarni jalb qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Habibjonov, A. (2022). *O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda infratuzilma va soliq imtiyozlarining o'rni*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali.
2. Farole, T. (2011). *Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experiences*. Washington, DC: The World Bank. Retrieved from <https://openknowledge.worldbank.org>
3. Jumaqulov, D. (2023). *O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligini oshirish strategiyalari*. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar instituti.
4. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). *Statistical Data on Free Economic Zones*. Retrieved from <https://stat.uz>
5. Central Bank of Uzbekistan. (2024). *Foreign Direct Investments Report*. Retrieved from <https://cbu.uz>
6. Ministry of Investments and Foreign Trade of Uzbekistan. (2024). *Investment Projects in FEZs*. Retrieved from <https://invest.gov.uz>
7. The World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Update: Focus on Investment and Growth*. Retrieved from <https://worldbank.org>
8. OECD. (2019). *OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan – Towards a More Modern, Effective and Strategic Public Administration*.
9. UZA rasmiy axborot agentligi, “Yangi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati muvofiqlashtiriladi”, (2019). <https://uza.uz/oz/posts/yangi-erkin-iqtisodiy-zonalar-faoliyati-muvofiqlashtiriladi>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish”, (2021). <https://president.uz/oz>
11. Urgut EIZ rasmiy sayti, “Urgut erkin iqtisodiy zonasida 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar”, (2024) <https://ufez.uz/uz/urgut-erkin-iqtisodiy-zonasi>
12. Unlocking_The_Potential_UZ_Policy. (2025).